

AXBOROT OLAMIDAGI MUAMMOLAR

Shodiya Oripova

Buxoro viloyati Qorako'l tumanidagi

16-maktab o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7404272>

Barchamizga ma'lumki, internet tarmog'idan foydalanish imkoniyati axborotlarni mislsiz tezlikda, yer yuzining istalgan nuqtasidan turib uzatish va qabul qilish imkonini bermoqda. Bunday holat qog'ozda aks ettiriladigan hujjatlarni, ma'lumotlarni elektron shaklda o'tkazilishiga, yuritilishiga xizmat qilmoqda. Bu esa axborotlashgan jamiyat tezlik bilan shakllanib, axborot keng talab qilinadigan va qimmat mahsulotga aylanib borayotganidan dalolat bermoqda.

Ko'rinib turibdiki, kompyuter texnologiyasi hamda internetning keng miqyosda tarqalishi, kun sayin taraqqiy etib borishi, insoniyat uchun misli ko'rilmagan imkoniyatlarni, qulayliklarni taqdim etmoqda. Mehnat unumdorligining ortishiga, o'zaro tajriba hamda bilimlarning almashishishiga, eng muhimi, jamiyatning taraqqiy etishiga, rivojlanishiga xizmat qilmoqda. Ammo internet xalqaro kompyuter tarmog'i orqali turli xildagi axborotlar kishilarning kundalik hayotida kirib kelayotgani bois, illatli hodisa va qarashlar rivojlanib borayotganini ham e'tirof etish lozimdir.

Ta'kidlash kerakki, global axborot oqimi sharoitida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yutuqlaridan samarali foydalanish natijasida ulkan yaratuvchanlik vazifalari bajarilmoqda. Shu bilan bir qatorda, millat va milliy qadriyatlar, urf-odatlar, an'analar, tarixiy va madaniy meros barqarorligi va vorisiyligini izdan chiqarishga yo'naltirilgan buzg'unchi g'oyalar va tajovuzkor mafkurali vayronkor g'oyalar targ'ibotchilari faoliyatining rivojlanishiga xizmat qilmoqda, desak mubolag'a bo'lmaydi. Yovuz hamda xatarli niyatlarni amalga oshirishga xizmat qiladigan axborotlarning mavjud bo'lishi odamlarga, ayniqsa, yoshlarga o'zining juda salbiy ta'sirini o'tkazishi mumkin.

Internet XXI asrda dunyo aholisining, ayniqsa, yoshlarning istalgan mavzu va yo'nalishdagi axborotga bo'lgan ehtiyojini to'liq qondira oladigan, insoniyat uchun taraqqiyotning muhim omili sifatida namoyon bo'layotgan ulkan elektron maydonga aylangan. Mazkur jarayonlarda g'araz niyatli kimsalar ham o'zining salbiy niyatlarini, maqsadlarini amalga oshirish yo'lida foydalanayotgani ham inkor etib bo'lmas haqiqatdir. Oqibatda, zalolatga boshlovchi elektron nashrlar va videolavhalar keng yoyilmoqda. Axir, axborot xurujlari ta'siriga eng ko'p beriladigan aholi qatlami esa bu yoshlar hisoblanadi. Tarmoqlarda joylashgan

salbiy axborotning qurshovi, ta'siri va uning muhiti mustaqil hayotga tayyorlanayotgan yoshlar ongi, kayfiyati, ruhiyati, ma'naviyatiga salbiy ta'sir ko'rsatmay qolmaydi. Hali mustaqil fikri aytarli darajada shakllanmagan, o'zining nuqtai nazariga ega bo'lmagan yoshlarni ijtimoiy tarmoqlar orqali davlat, jamiyat rivojini izdan chiqarishga qaratilgan ruhiy ta'sir mexanizmlari va vositalar ta'siriga tushib qolayotgani esa naqadar ayanchli hamda achinarli holatdir.

Keyingi paytlarda internet bilan bog'liq buzg'unchiliklar, global tarmoqdan qabih maqsadda foydalanayotganlar ko'payib bormoqda. Internet vositasida ishlaydigan dasturlar, ijtimoiy tarmoqlar orqali juda katta oqimda ma'lumotlar almashishi ro'y bermoqda. Ular asosan qiziqarli voqealar, gap-so'zlar, shou-biznes, sport xabarlarini, yangiliklardan iborat. Biroq hech kim tashqi kuchlar tomonidan ijtimoiy tarmoqlar, messenjerlardan o'zining maqsadi yo'lida foydalanmasligiga kafolat bermaydi. Bunday tarmoqlarning asosiy maqsadi yoshlar ongini, qalbini egallash, ma'lum bir mamlakat yoki mintaqadagi millat yoki xalqning ongiga, uning sezgi-tuyg'ulariga ta'sir o'tkazish, uni o'z dunyoqarashiga bo'ysundirish, ma'naviy jihatdan zaif va tobe qilishga qaratilgani bilan xatarlidir.

Demak, hozirgi tahlikali zamonda internet tarmog'i orqali tarqatilayotgan g'arazli ma'lumotlar, turli buzg'unchi g'oyalar, odob-axloqni yemiruvchi illatlar har bir ongli kishini tashvishga solishi kerak. Xususan, mentalitetimizga mos bo'lmagan, turli jangovar, ba'zan qahramonlik, vahshiylikka o'tib ketadigan o'yinlar ham farzandlarimizning axloqiy-estetik tarbiyasiga yomon ta'sir ko'rsatishini inkor etib bo'lmaydi. To'g'ri, ular bir qarashda oddiy o'yindek tasavvur uyg'otadi, ammo zo'ravonlik g'oyalari, yovuzlik kayfiyatini uyg'otishi juda ko'p salbiy oqibatlariga olib kelgani xususida ham juda ko'plab hayotiy misollar bisyor.

Shuningdek, yoshlar ongiga kuchli ta'sir etuvchi axborotlar, yot g'oyalarni, g'arb hayot tarziga xos, o'zbek mentalitetiga zid odatlarni, ko'nikmalarni, g'arb yoshlarining kiyinishini, odatlarini targ'ib etadigan, maqolalar, kliplar, filmlarda ham yaqqol namoyon bo'ladi. Ijtimoiy tarmoqlar orqali yoshlar ayni damda o'zidan olisda bo'lgan yaqinlari bilan muloqotda bo'lish va yangi do'stlar orttirishidan tashqari, internetda o'zini turli ijtimoiy rollarda sinab ko'rishi mumkin. Bugungi kun yoshlari taraqqiy etgan texnologiyalar olamida cheksiz takliflar chegarasida yashamoqda, desak o'rinlidir.

Bir so'z bilan aytganda, ayni paytda, globallashuv sharoitida dunyoning mafkuraviy manzarasi ancha murakkablashib ketdi. Mablag' qancha ketishidan qat'iy nazar yirik axborot tarqatuvchilik mavqeini egallashga urunish, ma'lum

bir ta'sir kuchiga ega bo'lishga harakat qilish odatiy holatga aylanib bormoqda, desak mubolag'a bo'lmaydi. Globallashuvning insoniyat, jumladan, yoshlar hayotiga ta'siri juda kuchli bo'lib, o'z navbatida, ularning globallashuvning kelib chiqishi mumkin bo'lgan salbiy oqibatlarining oldini olish uchun mafkuraviy immunitet shakllantirish asosiy maqsadlardan biri hisoblanadi.

Mamlakatimizda esa bunday salbiy omillarning oldini olish choralari ko'rilmogda. Bu borada kuchli mexanizmga ega qonunchilik bazasi yaratigan. Axborotlashtirish sohasidagi davlat siyosati axborot resurslari, axborot texnologiyalari va axborot tizimlarini rivojlantirish hamda takomillashtirishning zamonaviy jahon tamoyillarini hisobga olgan holda milliy axborot tizimini yaratishga qaratilgan. Jumladan, "Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to'g'risida"gi Qonunning qabul qilinishi har kimning axborotni erkin va moneliksiz olish hamda foydalanish huquqlarini amalga oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek, Prezidentimizning 2021-yil 26-martda qabul qilingan "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirishning chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida ham jamiyatda sog'lom dunyoqarash, oila, ta'lim tashkilotlari, mahallalarda ma'naviy tarbiyaning uzviyligini ta'minlash, internetdan foydalanish madaniyatini oshirish borasidagi ustuvor yo'nalishlar belgilangan.

Shunday ekan, yurtimizda hukm surayotgan tinch hamda osuda hayotni asrash, mamlakatimizning mustaqilligi va barqarorligiga munosib hissa qo'shish, shu aziz vatanda yashayotgan har bir fuqaroning asosiy vazifalaridan biri bo'lishi darkor. Axir, tinchlik-totuvlik, mehr-oqibat barhayot bo'lsa, jamiyat yanada taraqqiy etib boraveradi va jamiyatdagi barcha inson o'zining orzu-maqsadlariga erishadi.

Demak, farzandining istiqbolini, yorqin kelajagi porloq bo'lishini istaydigan har bir ota-ona tarbiya masalasiga jiddiy e'tibor berishi zarurdir. Bola tarbiyani turli kompyuter o'yinlari, internet va ijtimoiy tarmoqlardan emas, eng avvalo, ota-onalaridan, bobo-buvilaridan, ezgulikka, poklikka, diyonatga chaqiruvchi yaxshi kitoblardan olishi kerak, ekanligini tushuntirishi lozim.

Axborot almashinuvida ishtirokchi bo'lgan yoshlarning foydali axborotlardan ko'ra vayronkorlik yoki salbiy oqibatlar keltirib chiqaruvchi axborotlardan foydalanishga intilishi oqibatida ularning fikriy irodasida virtuallik va real hayot chegarasini aniq me'zonlar bilan ajratib olish ko'nikmasi mavjud emas. Bugungi kun yoshlari hayotini texnologiya va virtual olam shunchalik egallab olganki, uning ta'siri ostida hatto maktab ta'lim tizimi ham shunga moslashib bormoqda. Sababi zamonaviy pedagog bolalarning mashg'ul

bo'layotgan mashg'ulotlari haqida to'liq tasavvur etishi va shu orqali undan himoya qilish yoki targ'ib qilish xususiyatini shakllantiradi.

Darhaqiqat, shu o'rinda, axborot so'zining kelib chiqish tarixiga ahamiyat qaratadigan bo'lsak, arabcha "axbor", ya'ni xabar so'zidan olinganligidan voqif bo'lamiz. Informatsiya esa lotincha "information" so'zidan olingan bo'lib, "tushuntirish, xabar qilish, talqin etish" singari ma'nolarni anglatadi. Aytish joizki, axborotni qabul qilib inson yangi bilimlar bilan tanishadi, ilgari mavhum bo'lgan narsalarni anglaydi, qo'ygan savollariga javob topadi. Bu tugamas va doimiy jarayondir. Axborot deyilganda biz radio va televideniye xabarlarini, kitob, gazeta, berilganlar bazasi, kutubxona ma'lumotlarini, insonlar bilan muloqot qilish orqali va ilmiy jurnallardan olingan bilimlarni nazarda tutamiz. Axborotlar kitoblarda, kutubxonalarda qog'ozda saqlanadi. Ana shu ma'lumotlar qayta ishlanadi, shakllantiriladi, tizimlashtiriladi, saralanadi. Natijada, yangi axborot yuzaga keladi va ulardan yangi bilimlar olinadi. Bunday informatsiyalar jamiyatda ma'lum bir ijobiy ijtimoiy fikrning shakllanishiga ta'sir etmay qolmaydi.

Axborot manbasini baholashda avvalo, inson undan axborotni nima maqsadda olayotganini aniqlashi zarur. Axborot savodxonligi qaror qabul qilish va muammolarni tahlil qilish maqsadida axborotni olish, tushunish, baholash, moslash, saqlash, namoyish qilish uchun kerak bo'lgan kompetensiyalar to'plami hisoblanadi. Axborot borasida savodxon inson axborot izlash jarayonini o'z vaqtida to'xtatish lozimligini ham anglaydi.

Demak, insonlar qalbi, ongi uchun katta kurashlar kechayotgan globallashuv davrida yuksak ma'naviyat, odob axloq tarbiyasiga e'tiborni kuchaytirish muhim vazifa sanaladi. Dunyoda kechayotgan murakkab jarayonlar barchamizdan yoshlar tarbiyasiga yanada e'tiborli bo'lishni talab etadi. Bugungi shiddatli globallashuv davrida yoshlar ongu shuurini internet orqali kirib kelayotgan zararli g'oya va ta'sirlardan samarali va ishonchli himoyalash tobora dolzarb masalaga aylanmoqda. Yosh avlodni milliy qadriyatlar asosida tarbiyalash, ular qalbida o'z xalqi, vataniga mehr-sadoqat tuyg'usini kuchaytirish, ularni xar xil buzg'unchi kuchlarning axborot xurujlaridan ogoh etish, munosib himoya qilish juda muhimdir.

Bu esa o'qituvchilar, ma'naviyat targ'ibotchilari, ota-onalardan yanada hushyor va ogoh bo'lishni, yosh avlodning g'oyaviy-mafkuraviy immunitetini mustahkamlash borasidagi ishlar ko'lamini yanada kengaytirishni talab etadi. Buning uchun yoshlarimizning ma'naviy olamida bo'shliq paydo bo'lishiga yo'l qo'yilmasligi kerak. Shu bois, ularning qalbi va ongida milliy qadriyatlarimizga

hurmat tuyg'ularini shakllantirish maqsadida targ'ibot-tashviqot ishlarini yanada jadallashtirish darkor.

Turli taqiqlar yoki filtr vositalari orqali yoshlarni internet olamidagi turli kuchlarning xatarli tahdidlaridan, keraksiz va salbiy axborotlardan saqlash qiyin va faqatgina vaqtinchalik holat bo'lishi mumkin. Milliy manfaatlarimizga rahna solishga, ma'naviyatimizga tajovuz qilishga, tarixiy xotiramizni buzishga urinayotgan g'arazli kuchlarga qarshi doim ogoh turishimiz kerak. Ayniqsa, mafkuraviy immunitetga ega bo'lgan shaxsning esa ma'naviyati yanada yuksalib boradi. Sababi unga ma'naviy tahdid va mafkuraviy xurujlar zarar yetkaza olmaydi. Shu bilan birga u ana shu xurujlarga qarshi kurashishni yaxshi o'rganib oladi. Demak, yoshlarning ma'naviy qashshoqlashuvini oldini olishga erishish kerak. Axborot hurujiga va buzg'unchi g'oyalarga qarshi tura oladigan mafkuraviy immunitetning shakllanish kechiktirib bo'lmaydigan vazifa hisoblanadi.

Bularning barchasi O'zbekistonda kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etishga xizmat qiladigan islohotlarning natijasi sifatida namoyon bo'ladi. Biroq shuni unutmaslik kerakki, fuqarolik jamiyatini qaror toptirish xalqimizning ma'naviy fazilatlari yuksalishiga bog'liq. Shunday ekan, globallasuv sharoitida terrorism, missonerlik, diniy ekstremizm, "ommaviy madaniyat", loqaydlik, befarqlik, axborot xuruji va oilaning global inqirozi kabi illatlarning paydo bo'layotgani ma'naviyatning sayozlashuvidek, ulkan muammoni yuzaga keltirishiga yo'l qo'ymasligimiz shart. Ya'ni daxldorlik tarbiyasiga yetarli darajada e'tibor qaratilishi darkor. Aks holda yuqorida keltirilgan salbiy holatlarning barchasi yoshlar ma'naviyatining qashshoqlashuvi sabab bo'lishi mumkin.

Xulosa o'rnida aytish lozimki, axborot hamisha jamiyat hayotida sodir bo'layotgan voqea hamda hodisalarni iste'molchiga xolis yetkazib berish va kishilarning ongi, dunyoqarashi, ijtimoiy-siyosiy hamda huquqiy madaniyatini shakllantirishda asosiy vosita bo'lib xizmat qilishi juda zarurdir. Yoshlarning qanday g'oya ostidagi axborotlardan foydalanishi va uni targ'ib etishi millatning kelajagiga ham ta'sirini o'tkazadi.

Foydalanilgan adabiyotlar: